

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

O'RTA GURUHLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH

Omonova Zarifa
Xolmatova Gulruh
JDPU talabalari

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ingliz tilini o'rgatishda ijodiy vazifalarning ahamiyati haqida bayon etilgan

Kalit so'zlar:ingliz tili, maktabgacha yosh davri, chet tili, o'quv tarbiya, kichik yosh.

Abstract: This article describes the importance of creative tasks in teaching English to preschool children.

Key words: English, pre-school age, foreign language, education, young age
Ta'lim –tarbiyaning mazmuni , xarakteri, uslubi, tashkily shakli va sharoitlari bo'lib, ular bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga mos bo'lishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikkinchi til chet tiliga o'rgatish bo'yicha ular nutqini o'stirish va rivojlantirish, mashg'ulotlarda o'qitish elementlari, shakllari , mashg'ulot turlarining xilma-xilligi ham muhim o'rin egallaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni “ Ingliz tiliga o'rgatish” dasturi quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

1. 3 yil davomida bolalarda ingliz tilida so'zlashish, talaffuz qilish, tushunish kabi bilimlarni bilishlarini mujassamlashtirish.
2. Bolalarni fikrlash doirasini, eslab qolish qobiliyati , diqqatini , dunyoqarashini va ularning intellektual salohiyatini jismoniy harakatlar,o'yin, musiqa, faoliyati orqali yanada rivojlantirish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili haqidagi tushunchalarni oshirib borish, ya'ni ularda ingliz tiliga bo'lgan qiziqish va intilishlarini yanada mustahkamlash.

“Ingliz tiliga o'rgatish” dasturi quyidagi mavzular va ko'rsatmalardan iborat.

1. Tanishuv. (**Greetings.**)
2. Mening oilam. (**My Family.**)
3. Mening o'yinchoqlarim. (**My toys.**)
4. Sonlar. (**Numbers.**)
5. Ranglar. (**Colours.**)
6. Kasblar. (**Professions.**)
7. Fasllar. (**Seasons.**)

8. Kiyim-kechaklar. (**Clothes.**)
9. Hayvonlar va qushlar. (**Animals and Birds.**)
10. Tana qismlari. (**Parts of body.**)
11. Gziq-ovqat mahsulotlari. (**Food.**)
12. Mening uyim. (**My house.**)
13. Salom maktab. (**Welcome to school.**)
14. Ingliz alifbosi. (**The ABC.**)

Har bir mavzuga oid dasturda so'zlar, iboralar, she'riar, jismoniy harakatlar va ashulalar berilgan, ular o'quv jarayoni davomida bolalar tomonidan o'zlashtirib olinishi kerak. Mavzulani o'qitish jarayonida faqatgina mavzu bilan cheklanib qolmasdan, o'tilgan mavzularni qaytarib ya'ni takrorlab turish ham maqsadga muvofiqdir. Mashg'uiotlarda ko'rgazmali qurollar, tarqatmalar, videorolik, ATV dan, rangli fotosurat va rasmlardan unumli foydalanilsa yuqori natijalarga erishish darajasi ham yuqori boladi. Bu innovatsion texnologiyalar amaliy tajribalarda yaxshi natija bergan.

Quyida yosh guruhlarda berilgan dastur mazmuni bilan tanishamiz:

O'rta guruhfarda ingliz tilini o'qitishning maqsad va vazifalari:

(o'qitishning birinchi yili)

Ta'limning birinchi yili o'qitish davrida bolalarga ingliz tili nima uchun kerak ekanligi haqida ma'lumot beriladi. Ularga "**Greetings**", "**My Family**", "**My toys**" mavzulari orqali tanishtirib o'tiladi.

Ushbu mavzular bo'yicha bolalar erkin fikrlay olishlari kerak bolib ular, javob qaytarishlari ham lozim. Bundan tashqari o'qitishning birinchi yilida o'rta guruhdagi bolalar 4 ta asosiy ranglarni (**red, green, blue, yellow**) va 6 gacha (**From 1 to 6.**) sanashni bilishlari kerak.

Yilning oxiriga kelib esa ular bir nechta she'r va ashulalarni yod olgan bo'lishlari lozim. Ular nutqida dastur asosida berilgan so'z va lug'atlar bo'lishi lozim. Mashg'ulotlarda har bir o'tilgan yangi so'z va iboralarni, albatta o'zbek tilidagi tarjimasini bilan bolalarni tanishtirib borish lozim.

Katta guruhlarda ingliz tilini o'qitishning maqsad va vazifalari: (o'qitishning ikkinchi yili.)

Ta'limning birinchi yilining oxiriga kelib bolalar ingliz tilida quyidagilarni:

1. Kichik hajmdagi matnlarni tushunishni;
2. She'rlar va ashulalarni tushunib, yod olishni;
3. Bir-birlariga savollar berib javob qaytarishni;
4. Suhbatda qatnashayotgan bolalarni tushunishlari;
5. Predmetlar nomini, hajmini, rangini aytishni bilishlari kerak.

O'qitishning 2-chi yilida bolalarga **"My family"**, **"My toys"**, **"Seasons"**, **"My house"**, **"Professions"** mavzulari tanishtirib o'tiladi. Yana bolalar 1 dan 12 gacha sanashni va qolgan (**black, white, brown, orange, pink, violet, grey.**) ranglarini o'rganadilar.

Tayyorlov guruhlarida ingliz tilini o'qitishning maqsad va vazifalari:
(o'qitishning 3-chi yili)

Ikkinchi yilning oxiriga kelib bolalar quyidagilarni:

1. Kichik hajmdagi matnlarni tushunish va gapirib berishni;
2. She'rlar va ashulalarni tushunib yod olishlari kerak;
3. Suhbatda qatnashayotgan bolalarni tushunishni;
4. Bir-birlariga savol berib javob qaytarishlarni;
5. Predmetlar nomini, hajmini, rangini aytishlarni bilishlari kerak

Yana bolalar tomonidan **"Parts of body"**, **"Welcome to school"** mavzulari o'zlashtirib olinishi kerak. Undan tashqari bolalar 1 dan 20 gacha sanashni va 11 ta ranglarni yod olishlari kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mashg'ulotlarni to'g'ri va aniqlik bilan rejalashtirish, bolalarni ikkinchi tilni tez o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu maqsadlarni amalga oshirish uni ruyobga chiqarish ya'ni bilimli, aql-idrokli, qobiliyat va mahoratga ega bo'lgan mehnatsevar, iste'dodli hamda kasbining fiyoisi bolgan o'qituvchi va pedagoglar qo'lidan keladi.

Bu esa buyuk kelajak avlodlarni har tomonlama barkamol, yetuk, intellektual shaxs qilib tarbiyalashga yo'l beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babaeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" darslik TDPU 2018 yil.
2. Qodirova F.R. Bolalarni chet tilga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: "Sano-standart" 2009y.

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

3.Isoqov.U. Raximov. M,. Sobirov.B. Inglizcha – o'zbekcha -lug'at. – T.: Yangi asr avlodi. 2010